



KOMPETENSIYAVIY YONDASHUVNING INGLIZ TILI O'QITUVCHILARI KASBIY MAHORATINI SHAKLLANTIRISHDAGI O'RNI VA ROLI

Ibrohimova O.X.

Andijon davlat chet tillari instituti doktoranti

Tayanch so'zlar: kompetensiyaviy yondashuv, kasbiy mahorat, kompetensiyaviy talab, kompetensiyalar tizimi, malaka oshirish kursi, kasbiy sifatlar.

Ключевые слова: компетентностный подход, профессиональное мастерство, квалификационные требования, система компетенций, курс обучения, профессиональные качества.

Key words: competency approach, professional skill, competency requirement, competency system, training course, professional qualities.

Ilm-fan sohasida ma'lum bir fenomenaning chuqur tadqiqotlar olib borilib takomillashuvi uning keyingi bosqichiga yo'l ochadi. "Kompetensiya" atamasining ommalashuvi va tadqiqi "kompetensiyaviy yondashuv" va "kompetentlik" tushunchalarini shakllanishiga sabab bo'ldi. Tadqiqotchi olim E.F.Zeerning talqinicha, kompetentlikning funksional taraqqiyoti ustida izlanishlar olib borish kasbiy kamolotga erishish mobaynida kompetentlikning turli ko'rinishlari o'zaro integratsiyalashib borishi va ularning shaxsda muhim kasbiy sifatlar bilan aloqasi kuchayib borib, takomillashishini bayon etgan.


kasbiy kompetentlik darajasini aniqlagan holda muntazam tekshirib nazorat qilish jarayoni sifatli kadrlarni tayyorlashga va ish sifatini oshirishga olib keldi. Kompetensiyaviy yondashuv sabab har bir sohada ma'lum bir qoidalar asosida belgilangan kompetensiyalar tizimi shakllandi. Masalan, quruvchilik sohasini oladigan bo'lsak, quruvchi mutaxassis sifatida o'z kasbidan kelib chiqqan holda xom ashyoni to'g'ri taqsimlash uchun matematik kompetensiya, so'nggi uy qurish uslublari bilan bog'liq bo'lish uchun ijtimoiy tarmoqdan foydalanish kompetensiyasi va quruvchilik sohasiga doir bilim ko'nikmalarni o'z ichiga oluvchi kasbiy kompetensiyalarga ega bo'lishi talab etiladi. Yoki shifokorlik kasbini olsak, professional shifokor bemorning holati va analiz natijalariga



qarab aniq tashxis qo'ya oladigan mutaxassis ya'ni kasbiy bilim kompetentligi yuqori bo'lishi darkor. Bundan tashqari, shifokorlar kasbi nuqtayi nazaridan muloqot kompetensiyasi, tanqidiy fikrlash kompetensiyasi va bemorlar bilan ishlashda psixologik kompetensiyalarga ega bo'lishi maqsadga muvofiq.


Ushbu sohalar qatorida til o'qitish sohasida ham kompetensiyaviy yondashuv mahoratli til o'qituvchisi egallashi kerak bo'lgan kompetensiyalarni shakllanishiga turtki bo'ldi. Aslida, o'qituvchi kadrlarning pedagogik va kasbiy salohiyati masalasi uzoq tarixga ega bo'lib, faqat bu tushuncha kompetensiya yoki kompetentlik emas pedagogik bilim, pedagogik ko'nikma, pedagogik mahorat tarzida tadqiqotlar markazida bo'lgan. Yurtimiz olimlari N. Ataeva, M. Salaeva va S. Hasanov tomonidan yaratilgan "Umumiy pedagogika" o'quv qo'llanmasida pedagogik kompetentlik pedagogik mahorat sifatida talqin etilgan va unga bir qancha ta'riflar berilgan. Ulardan birida pedagogik mahorat egasi – o'z kasbining mohir ustasi bo'lgan yuksak darajada madaniyatli, o'z fanini chuqur biladigan yondosh sohalarni yaxshi tahlil eta oladigan, tarbiyalash va o'qitish uslubiyatini mukammal egallagan o'qituvchi-tarbiyachidir deya e'tirof etilgan. "Pedagogik mahorat" atamasi o'quv fani nomlarida, pedagogik va metodik jurnallar nomlarida, ilmiy-uslubiy maqolalar bosh mavzusida aks etgan. O'qituvchilarga beriladigan baho ularning pedagogik mahoratiga qarab berilgan va o'qituvchilarni pedagogik mahorati kuchli yoki kuchsiz deya sifatlangan. Masalan, A.Xoliqov o'qituvchining pedagogik mahorati tushunchasi mazmunini o'z faniga doir bilimlarning mukammal sohibi, madaniyatning yuqori darajasi, bilimdonlik va aql-zakovatning yuksak ko'rsatkichi, pedagogika va psixologiya fanlaridagi bilimlarni puxta egallagan va kasbiy faoliyatida foydalanadigan shaxs misolida talqin etgan. Malaka oshirish va qayta tayyorlash kursi tinglovchilari uchun o'quv qo'llanma sifatida foydalanilgan yana bir "Pedagogik mahorat" darsligida pedagogik mahoratning tarkibiy qismlari sifatida pedagogik texnika, pedagogik muomala, pedagogik ijod, pedagogik qobiliyat, pedagogik madaniyat va pedagogik nazokat muhim ahamiyat kasb etishi ta'kidlangan.

Hozirda ushbu atama "pedagogik kompetensiya" yoki "kasbiy kompetensiya" nomlari bilan keng qo'llanilmoqda. Kasbiy kompetensiyasi yuqori o'qituvchilar esa "kompetent o'qituvchi", "pedagogik kompetentligi yuqori o'qituvchi" yoki "kasbiy kompetentligi kuchli o'qituvchi" deya e'tirof etilmoqda. Qolaversa, chet tili o'qituvchilarining qaysi kompetensiyasi yuqori ekanligiga qarab ham baho berilmoqda. Na'muna sifatida, ijtimoiy tarmoqlarda.



1-rasm

Umumiy tahlil qilganda kompetensiyaviy yondashuv chet tili o'qituvchilarining kasbiy mahorati shakllanishida ijobiy natijalarni ko'rsatdi. Quyidagi jadvalda ushbu ijobiy natijalar guruhini ko'rishimiz mumkin.



2-rasm

Birinchi guruhda berilgan ingliz tili o'qituvchilarining til kompetensiyalari rivojlanishini izohlasak, ta'limga oid hujjatlarda belgilangan me'yorlar asosida chet tili o'qituvchilarining lingvistik va kommunikativ til kompetensiyalari sezilarli darajada rivojlandi. Ushbu kompetensiyalarni aniqlab beruvchi xalqaro va milliy baholash tizimlari bunda katta tayanch vazifasini o'tadi. CEFR, IELTS, TOEFL va shu kabi ingliz tili bilish darajasini baholovchi dasturlarning mamlakatimizda joriy etilishi, ulardagi til kompetensiyalarining milliy ta'lim tizimimizda aks etishi natijasida nafaqat o'qituvchilar balki o'quvchilarning til bo'yicha lingvistik va kommunikativ kompetensiyalarini jadal rivojlanishi



kuzatildi. Negaki ingliz tili o'qituvchilariga xalqaro va milliy chet tili baholash dasturlaridan imtixon topshirib belgilangan ballni qo'lga kiritganda ularga ish haqiga qo'shimcha foiz ustamalar berish bilan rag'batlantirish ta'limga oid qarorlarda o'z aksini topdi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrda "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1875-son qarorining 7-bandiga asosan chet tillar o'qituvchilari va muallimlarining lavozim maoshlari tarkibiga kiritilgan holda qishloq joylarda joylashgan ta'lim muassasalarida (TMda) ularning tarif stavkalariga 30 foiz va shahar hududidagi TMda 15 foiz stavkalari miqdoridagi har oylik qo'shimchalarni qonun doirasida belgilangan me'yorlar asosida qo'shib berilishi joriy etilgan. Ushbu qaror asosida ingliz tili o'qituvchilarining lingvistik va kommunikativ kompetensiyalarini baholovchi imtixon joriy etilib, hududlarda barcha ingliz tili o'qituvchilari testdan o'tkazilgan. Imtixonidan muvaffaqiyatli o'tgan o'qituvchilar yuqorida keltirilgan qaror asosida oylik ustama olishga erishgan. Mazkur qaror natijasida boshqa ingliz tili o'qituvchilari ham lingvistik va kommunikativ kompetensiyalarini oshirish maqsadida o'z ustida ishlashni yanada kuchaytirgan. Ushbu holatni tizimli tashkil etish uchun hukumat tomonidan juma kunlari ingliz tili o'qituvchilari uchun bepul trening mashg'ulotlar tashkil etilgan. Natijada barcha hududlarda ingliz tili o'qituvchilarining til kompetensiyasi samarali rivojlantirishga erishilgan desak mubolag'a bo'lmaydi.

Ta'limni bosqichma-bosqich rivojlantirishga asoslangan ta'lim tizimimizda keying qadam chet tili imtixonlari darajasini yuqori ballga ko'tarish va shu bilan birga oylik ustama foizini ham ko'tarish bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi «O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-5117-son qarori 5-bandiga asosan S1 darajadagi milliy yoki unga tenglashtirilgan mos darajadagi xalqaro tan olingan sertifikatga ega xorijiy tillar o'qituvchilarining bazaviy tarif stavkasiga nisbatan har oylik 50 foiz miqdorida qo'shimcha ustama haqi to'lab borilishi belgilandi. Mazkur qaror zahirida chet tili o'qituvchilarining akademik til bilish darajasini xalqaro standartlar talabidagi yuqori bosqichga olib chiqish maqsadi qo'yilgan. Qolaversa, ushbu qaror chet tili o'qituvchilarining kasbiy rivojlanishi uchun motivatsion kuch berdi desak mubolag'a bo'lmaydi. Negaki mazkur qarorni amalda kuchga kirishi bilan lingvistik va kommunikativ kompetensiyasi yuqori S1 darajali til mutaxassislarining soni keskin ortdi va bu holat davom etmoqda.

Kompetensiyaviy yondashuvning xorijiy davlatlardagi pedagoglar kasbiy kompetensiyasiga ta'sirini kuzatadigan bo'lsak, takomillashgan kasbiy me'yorlar shakllanishi holatlarini ko'rishimiz mumkin. Chet davlatlarda nufuzli universitetlar o'rtasida raqobat avj olgan bo'lib, ular o'zlarining internet tarmog'idagi web sahifasida mazkur universitetda tahsil oladigan kadrlar qanday kompetensiyalarga ega bo'lishini havola etgan. Masalan, dunyoga mashxur universitetlardan AQShning Stendford universiteti (jahon reytingida 5-o'rinda turuvchi) o'zining ijtimoiy websaytida universitet o'quv dasturlari ta'minlovchi 6 muhim kompetensiyani kasbiy rivojlanish asosi deya ta'kidlagan. Quyidagi jadvalda ushbu kompetensiyalar bilan tanishib chiqishimiz mumkin.

Yuqorida berilgan ma'lumotlarni umumlashtirgan holda xulosa qiladigan bo'lsak, kompetensiyaviy yondashuv sabab o'qituvchilar kasbiy mahorati kompetentlik darajasiga ko'tarildi va quyidagi kompetentlik sifatlarini shakllanishiga sabab bo'ldi:

- auditoriyaga ta'sir qilish uchun o'z nutq uslubini shakllantirish va muloqot o'rnatish uchun samarali strategiyalar va sodda nutq shaklidan foydalanish;
- qiziqarli va diqqatni tortuvchi taqdimotlar yaratish va taqdim etish uchun vizual va multimedia vositalaridan foydalanish;
- rasmiy darslar, o'quv mashg'ulotlari, to'garaklar va onlayn o'quv muhitlari uchun o'quv dasturlari, kun tartibi va dars rejalarini ishlab chiqish;
- o'quv hamjamiyatining barcha a'zolarini teng huquqli deb bilish va o'quvchilar ishtirokini ta'minlash uchun normalarni belgilash va inklyuziv amaliyotlardan foydalanish;
- o'rganish jarayonini rag'batlantiradigan va o'quvchilarni professional muhitga tayyorlaydigan ta'lim va hamkorlik texnologiyalarini qo'llash;
- mentorlarni qo'llab-quvvatlash, qo'llab-quvvatlovchi va tajriba almashuvchi jamoalar bilan bog'lanish, muammolarni hal qilish, murabbiylikdan maksimal darajada foydalanish;
- akademik soha, ish faoliyati va ijtimoiy hayotning yaxlitligini anglagan holda o'zini har qanday holda boshqarish va ish hayot balansini muvofiqlashtirish, tanqidiy va analitik fikrlash, kasbiy etikaga rioya qilish;
- samaradorlikni oshirish va o'quvchilar bilan ijobiy aloqalarni o'rnatish uchun madaniyat, o'ziga xoslik, shaxsiyat va boshqa omillardagi farqlardan xabardor bo'lish;



- kelib chiqishi turli xil bolgan va nuqtai nazariga ega bo'lgan o'quvchilar bilan samarali ishlash uchun jalb qiluvchi vositalar va strategiyalardan foydalanish;
- kamtarlik, hamdardlik, qiziquvchanlik, o'z-o'zini anglash, hissiy aql va jamiyatda o'zini tutish axloqi kabi yetakchilik fazilatlarini tarbiyalash;
- trening va loyihalarda ishtirok etadigan keng doiradagi shaxslar, jumladan, nazoratchilar, tengdoshlar va supervayzerlar bilan samarali muloqot qilish;
- murakkab muammolarga yechim topishda kreativ fikrlash kabi ijodkorlik va innovatsion amaliyotlarni qo'llash;
- rezyumelar, o'quv rejalari, muqovali xatlar va raqamli platformalar orqali turli ko'nikmalaringiz, intizomiy bilimlaringiz, kasbiy kompetensiyalar va kasbiy portretni ifodalash.

Demak, kompetensiyaviy yondashuv chet tili o'qituvchilari egallashi kerak bo'lgan kasbiy kompetensiyalarni shakllanishi va o'qituvchilar professiogrammasi (kasbiy portreti)ni sifat jihatdan takomillashuviga sabab bo'ldi. Chet tili o'qituvchilariga xos sifatlar kompetensiyaviy yondashuv sabab "kasbiy kompetensiyalar" deya yuritila boshlandi va ularning turlari shakllandi. Chuqur tadqiqotlar natijasida o'qituvchi kasbiy kompetentligi xarakteristikasi, o'ziga xos sifatleri takomillashdi. O'qituvchilarga xos kompetensiyalarning har bir turi tadqiqot fokusi darajasiga ko'tarildi ularga na'munalar asosida izohlar berildi. Mazkur izlanishlar ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy mahoratini kompetensiyaviy talablar asosida takomillashuvini ta'minladi. Bu o'z o'rnida kompetent o'qituvchilar vositasida ingliz tili o'qitish jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Зеер Э.Ф. Психолого-дидактические конструкты качества профессионального образования. //М.: "Образование и наука" журнал N2, 2002. С. -14.
2. Ataeva N., Salaeva M va Hasanov S. Umumiy pedagogika (Pedagogika nazariyasi va amaliyoti asoslari), O'quv qo'llanma. II kitob. H.Boboevnnr umumiy tahriri asosida. -T.: "Fan va texnologiya", 2013. – B. 736.
3. A.Xoliqov "Pedagogik mahorat". Toshkent "Iqtisod-moliya" 2011. UDK 371 (075). – 11 b.
4. M.M.Ahmetjanov, Sh.SH.Olimov, S.S.Avezov "Pedagogik mahorat" malaka oshirish va qayta tayyorlash kursi tinglovchilari uchun o'quv qo'llanma. Toshkent, "Lesson press", 2018. – 14 b.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrda "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillastirish chora tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1875-son qarori
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi «O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-5117-son qarori
7. <https://vpge.stanford.edu/professional-development/competencies-grad-grow>



РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada kompetensiyaviy yondashuvning mazmuni va uning joriy etilishidan oldingi va keyingi davrda ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy mahoratiga qo'yilgan talablar tahlil qilinadi. Kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashgan ingliz tili o'qituvchisining kasbiy mahorati sifatлари tadqiq qilinadi.

РЕЗЮМЕ

В данной статье анализируется содержание компетентного подхода и требования к профессиональным навыкам преподавателей английского языка до и после его внедрения. На основе компетентного подхода исследуется качество профессиональных навыков преподавателя английского языка продвинутого уровня.

SUMMARY

This article analyzes the content of the competency approach and the requirements for the professional skills of English language teachers before and after its introduction. The advanced quality of professional skills of the English teacher based on the competence approach is researched.